

## FAVQULOTDA VAZIYATLARDA AXBOROT VA PSIXOLOGIK XURUJLARDAN HIMOYA QILISH TEXNOLOGIYALARINI TIZIMLI TAKOMILLASHTIRISH

**Urazov Bekzod Qudratovich**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Harbiy Xavfsizlik va Davlat Mudofaasi fakulteti

2-bosqich tinglovchisi podpolkovnik

**Mamajonov Ibrohim Olimjon o'g'li**

Umumqo'shin fakulteti 4-bosqich kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7024613>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ayni ohirgi vaqtlarga kelib favqulotda vaziyat xavfiga tenglashtirilayotgan axborot va psixologik tahdidlarning qay tarzda namoyon bo'lishi va ularga qarshi kurashish bo'yicha tizimli ishlarni takomillashtirish yo'llari yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* vatan, axborot, mafkura, xuruj, tahdid.

## СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ЗАЩИТЫ ОТ ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АТАК В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

*Аннотация.* В данной статье описывается, как проявляются информационно-психологические угрозы, которые в последнее время отождествляются с опасностью чрезвычайной ситуации, и пути совершенствования системной работы по борьбе с ними.

*Ключевые слова:* родина, информация, идеология, нападение, угроза.

## SYSTEMATIC IMPROVEMENT OF TECHNOLOGIES FOR PROTECTION AGAINST INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL ATTACKS IN EMERGENCY SITUATIONS

*Abstract.* This article describes how informational and psychological threats, which have recently been equated with the danger of an emergency situation, are manifested and ways to improve systematic work to combat them.

*Keywords:* homeland, information, ideology, attack, threat.

### KIRISH

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyo hamjamiyatida yangidan yangi tahdid va xurujlarning avj olishi barchamizni havotirga solmoqda. Ko'plab mamlakatlarda esa bu xurujlar natijasida favqulotda vaziyatlarning kelib chiqishi asosiy sabab vazifasini o'tamoqda. Ularning nomiga to'xtalishimiz joiz emas ammo barchamizga ayon jumladan Markaziy Osiyoda ham bunday holatlar yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda.

Bugungi kunda bunday noan'anaviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o'zgartirmoqda va information-psixologik xurujlar sezilarli xavf-xatar tug'dirmoqda. Ular armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy asoslariga ta'sir o'tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, ma'naviy qadryat va an'analarimizga mutlaqo zid bo'lgan buzg'unchi g'oya va tushunchalarni yoshlarimizning ongu tafakkuriga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir. [1]

Ularning asl maqsadlari shundan iboratki dunyo sahnida inson ongini zabt etish va shu yo'l bilan turli siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga urinayotgani hech kimga sir emas. Ularning inson ma'naviyatiga qaratilgan, bir qarshda arzimasdek tuyiladigan, arzimas kichkina habar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin

zararini esa hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazayotgani barchamizga ma'lum.

## **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Hozirgi kunga kelib zamonaviy qurol axborot olami bo'lib qolmoqda. Kim jahonda axborot maydonida hukmronlik qilsa, o'sha yutadi degan aqida o'z isbotini topmoqda. Shu bilan birga harbiy sohadagi milliy xavfsizlikka qaratilgan asosiy tahdidlar quyidagicha aks etadi.

Axborot-kommunikatsiya makonida O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi mafkuraviy va psixologik harakatlar. [2] Bunday insonlarni ruhiyati va ma'naviyatiga qaratilgan tahdidalar ayni vaqtda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu kabi yot g'oylarga qarshi tura olish uchun yosharda buzg'unchi mafkuralarga nisbatan immunitetni shakllantirish, metodlarini takomillashtirish faqat g'oyaviy-tarbiyaviy ish bilan cheklanib qolmaydi. Bu kabi mafkuralarning kirib o'ziga xos usullari mavjud.

Yot mafkuralar yoshlarga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, mafkura haqida ochiq gapirilmaydi, balki san'at, iqtisodiyot, huquq, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy muommolar ko'tarilib, mafkuraviy nuqtai nazardan tegishli xulosalar chiqariladi. [3]

Biz mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida qarama-qarshi targ'ibotlar asosida ham ishlashimiz darkor. Bunday targ'ibotlar o'zining mazmuni, usulublari, tamoyillari va shakllariga ko'ra murakkab hodisadir. Qarama-qarshi targ'ibot barcha oliy ta'lim muaassalarida yot mafkuralarga qarshi hal qiluvchi, hujumkor va aniq bir maqsadga tizimli yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga eng xavfli illatlar – qat'iyatsizlik, tahdidlarga yetarlicha baho bera olmaslik beg'am va sustkashlik ekanligini nazarda tutmog'imiz darkor.

## **TADQIQOT NATIJALARI**

Sohibqiron Amir Temur ham umri davomidagi janglar mobaynida dushman qo'shiniga ta'sir va bosim o'tkazishda psixologik omilni qo'llagan, bugungi kundagi tushuncha bilan aytganda psixologik urush olib borgan. Sohibqironning bunday uddabironligi o'z lashkarlarini omonligi va dushmanning esa mag'lubiyatiga olib kelar edi. Mafkuraviy hujumlarning ko'rinishi ham turlicha bo'lib o'zgacha ko'rinishlarda ham namoyon bo'layotganini sezmaslikni iloji yo'q.

Keyingi davrlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Yevropaning dengizlarni zabt etish siyosati kuchayishi bilan tellurokratiya (quruqlik ustidan hukmronlik) mafkurasi o'rnini talassokratiya (dengizlar ustidan hukmronlik) mafkurasi egallaganini aytib o'tish joiz. Yevropa Sharq va Janub ustidan 'liq hukmronlikka erishgach, Yevropadagi mamlakatlarning o'zlari bu boyliklarni bo'lib olish ustida talasha boshlashdi. Bir tomondan Fransiya va Angliya, Germaniya va Rossiya o'zaro manfaat talashishni boshlab yuborishdi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi yana ko'p qutbli (polipolyar) holatga kelib qoldi.

Jahondagi yuz berayotgan jiddiy voqea-hodisalarga, birinchi navbatda o'ta qaltis nizoli masalalarga ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri haqida gap borganida, so'zsiz, Ukraina davlatidagi bugungi voqealar ko'z oldingizga keladi. Keyingi olti oyda bu voqealarni Rossiya, Ukraina, Amerika shma Shtatlari va yevropa mamlakatlari har biri o'z haqiqatlaridan, aniqrog'i, o'z yondashuvlari yoki manfaatlaridan kelib chiqib yoritdilar. Bunday qaltis vaziyatlarda hech qaysi mamlakat na qozilik na hakamlik qila olmadi. Aftidan, BMT ning ham hafsalasi pir bo'ldi. Aql-idrokni ishga solib, mojaroning oqibatini o'ylab, davlatning va xalqning kelajagi haqida qayg'urib, mintaqaning va jahonning tinchligi hamda xavfsizligi haqida tashvish bildirib, qarama-qarshi tomonlarni murosaga keltiradigan birorta yetakchi kuch topilmadi. Ommaviy

axborot vozitalari esa o'z xaqiqatlaridan boshqa haqiqatni tan olmaydigan kuchlarga xizmat qildi[4].

## MUHOKAMA

Bugungi kunga kelib axborot muhtaloligiga chalingan yoshlarning soni kopaytib borayotgani achinarli holdir. Bunday holatni mutaxassislar "axborot ochligi" sindiromi nomi bilan baholamoqdalar. Ya'ni bu kasallikka chalinganlar tinimsiz yangiliklarga ega bo'lib o'z extiyojini qondirib turmasa, dipressiyaga tushub qoladi. Eng achinarlisi hozirgi vaqtda internet klublardan foydalanganlarning aksaryati maktab o'quvchilari tashkil etayotganligi bu muommoning naqadar dolzarbliligini ko'rsatadi. Statistika to'xtalsak internet klublari foydalanuvchilarining 71 foizini 10 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar tashkil etmoqda.

Biroq, tayoqning ikki uchi bo'lgani singarihar qanday yangi va yaxshi tizimning o'ziga xos salbiy taraflari bo'lishini unutmasligimiz kerak. Jahonga tarqalayotgan axborotlarning hammasi ham yahshilikka qaratilmaganligini anglash zarur. Shu bois axborotlar bilan ishlashda, ulkan axborotlaraxborotlar oqimidan foydalana olishi va saralay bilishi hamda zarurlarini ajratib olish, zararlilarining zamiridagi yot maqsad va g'oyalarni ilg'ay olish uchun avvalo mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim.

Albatta ma'lum bir axborotning noxolisligini anglash, "tanib olish" va unga munosabat bildirish uchun avvalo har bir inson o'z Vatanini, oilasini, onasini, farzandini farzandini sevganidek sevishi kerak[5]. O'z oilasiga qanchalik qayg'ursa, uning ahvolini bilsa yurtining ham barcha jihatlarini bilishi zarur bo'ladi. Oilasi, onasi haqida eshitilgan har qanday nojo'ya gap uning vujudini, ruhini qanday bezovta qilganidek, Vatan To'g'risida aytilgan begona o'z ham uning qalbini larzaga solmog'i lozim.

"Internet" dunyoni zabt etayotgani barchamiz ychun ma'lum bo'lib qoldi. Bu xususda shunday deyish mumkinki, Internetdan foydalanishda juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish darkor. Yuqorida aytganimizdek, ayrim qalbi, vujudi fisqu-fasodga to'lib ketgan, birovlarining azoblanishi ko'rib rohat oladigan razil kimsalarning mavjudligi bizni har doim yodimizda turishi lozim.

## XULOSA

Mintaqamizda va butun dunyoda murakkab va oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyat vujudga kelgan bir sharoitda hushyor va ogoh bo'lish, jamoalarda esa sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday axborot-psixologik xurujlarning oldini olish borasida ishlarni kuchaytireish o'ta muhimdir.

## REFERENCES

1. Islom Karimov Qurolli Kuchlarni tashkil etilgani. Bayram tabrigi.
2. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Doktrinsi to'g'risida. – Toshkent. 2018, 8-modda.
3. Qosimova, Zebo. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning uslublari. – T.: "Ma'naviyat" 2013. – 4 b.
4. Axborot-psixologik xurujlar va ma'naviy tahdidlar / "Vatanparvar kutubhonasi": - T.: "Sharq", 2015, - 11 b.
5. Ro'ziyev, Shuhrat. Mafkuraviy immunitet manbalari. O'zR IIV. – T.: Alisher navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubhonasi nashriyoti, 2008, - 39 b.